

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING TA'MINLANISHI

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Toshkent davlat agrar universiteti

“Agroiqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.,

E-mail: dsaidova@rambler.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yillik davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy, institutsional va ishlab chiqarish asoslari, qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat sanoatida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalar va 2030-yilgacha bo'lgan istiqbolli vazifalar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi, iqtisodiy va jismoniy foydalanish imkoniyati, sifati va xavfsizligi hamda ta'minot barqarorligi birligi sifatida qaraladi. Maqolada hududiy oziq-ovqat xavfsizligini baholashning kompleks indikatori taklif etilib, ishlab chiqarish, aholi jon boshiga ta'minot, narxlar, sifat va xavfsizlik, importga bog'liqlik, saqlash-qayta ishlash infratuzilmasini yagona tizimda baholash asoslanadi. 2030-yilgacha resurs-tejamkor texnologiyalar, raqamli monitoring, “daladan dasturxongacha” nazorat, agrologistika, iqlimga mos qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat eksportini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat ta'minoti, aholi jon boshiga ishlab chiqarish, hududiy tafovut, agrar islohotlar, oziq-ovqat sifati, oziq-ovqat eksporti, iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В статье проведён комплексный научно-аналитический анализ экономических, институциональных и производственных основ обеспечения продовольственной безопасности Узбекистана за 35-летний период независимости, а также результатов реформ в сельском хозяйстве и пищевой промышленности и перспективных задач до 2030 года. Продовольственная безопасность рассматривается как единство наличия продовольствия, его физической и экономической доступности, качества и безопасности, а также устойчивости поставок. Рассчитаны показатели производства на душу населения по пяти основным видам продукции — зерновым, картофелю, овощам, фруктам и ягодам, винограду — по регионам. Предложен комплексный региональный индикатор продовольственной безопасности, объединяющий производство, обеспеченность на душу населения, ценовую доступность, качество и безопасность, импортозависимость, инфраструктуру хранения и переработки. Разработаны рекомендации по цифровому мониторингу, контролю «от поля до стола», климатически адаптированному сельскому хозяйству, ресурсосберегающим технологиям, агрологистике и расширению продовольственного экспорта до 2030 года.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, сельское хозяйство, продовольственное обеспечение, производство на душу населения, региональные различия, аграрные реформы, качество продуктов питания, продовольственный экспорт, изменение климата, устойчивое развитие.

Abstract. This article provides a comprehensive scientific and analytical assessment of the economic, institutional and production foundations of food security in Uzbekistan during the 35-year period of independence, with particular attention to reforms in agriculture and the food industry and to development priorities through 2030. Food security is considered as the combined availability, physical and economic accessibility, quality and safety of food, and stability of supply. The results indicate an increase in per capita production of most products, while substantial regional disparities remain. The study proposes a comprehensive regional food-security indicator combining production, per capita availability, price affordability, food quality and safety, import dependence, storage and processing infrastructure. Policy recommendations are developed for digital monitoring, farm-to-fork control, climate-smart agriculture, resource-saving technologies, agro-logistics, and expansion of food exports by 2030.

Keywords: food security, agriculture, food supply, per capita production, regional disparities, agrarian reforms, food quality, food exports, climate change, sustainable development.





KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlik, inson kapitali va barqaror iqtisodiy rivojlanishning uzviy tarkibiy qismidir. Zamonaviy sharoitda mazkur tushuncha faqat aholini etarli miqdordagi oziq-ovqat bilan ta'minlashni emas, balki oziq-ovqatning iqtisodiy jihatdan hamyonbopligi, biologik va sanitariya xavfsizligi, oziqlanish qiymati, hududiy mavjudligi hamda ta'minot zanjirlarining tashqi va ichki shoklarga chidamliligini ham qamrab oladi.

O'zbekiston uchun oziq-ovqat xavfsizligi masalasi demografik o'sish, suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o'zgarishi, er degradatsiyasi, oziq-ovqat narxlarining o'zgaruvchanligi va xalqaro bozorlardagi logistika xatarlarining bir vaqtda kuchayishi bilan yanada dolzarb bo'lmoqda. FAOning 2025-yilgi mamlakat sharhida qishki don ekinlari uchun 2024-yil kuzida ayrim hududlarda yog'ingarchilik uzoq muddatli o'rtachadan qariyb 20 foiz past bo'lgani, yuqori harorat va namlik tanqisligi hosildorlikka xavf tug'dirgani qayd etilgan [2]. Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini iqlimga moslashtirish oziq-ovqat xavfsizligining ajralmas qismiga aylanayotganini ko'rsatadi.

Mustaqillikning 35 yilligi O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha bosib o'tgan yo'lini qayta baholash uchun muhim tarixiy chegaradir. 1991-yilda asosiy vazifa ichki oziq-ovqat bazasini shakllantirish va importga bog'liqlikni kamaytirish bo'lgan bo'lsa, Yangi O'zbekiston bosqichida vazifa sifat jihatdan kengaydi: ishlab chiqarish bilan birga qayta ishlash, saqlash, logistika, oziq-ovqat xavfsizligi standartlari, sog'lom ovqatlanish, eksport va ekologik barqarorlik yagona tizim sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mustaqillikning 35 yillik davrida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha erishilgan natijalarni ilmiy-tahliliy baholash, 2015–2025-yillarda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini aniqlash hamda 2030-yilgacha oziq-ovqat xavfsizligini kuchaytirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslashdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha odatda oziq-ovqatning mavjudligi, undan foydalanish imkoniyati, iste'molning oziqlanish va xavfsizlik jihatlari hamda ta'minotning barqarorligi orqali izohlanadi. FAO yondashuvida oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat tizimining barcha bosqichlarini — ishlab chiqarishdan tortib iste'molgacha — qamrab oluvchi kompleks kategoriya sifatida qaraladi [5].

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini faqat yalpi ishlab chiqarish bilan baholash metodologik jihatdan etarli emas. Aholi sonining o'sishi sharoitida mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshgan bo'lsa ham, aholi jon boshiga ishlab chiqarish pasayishi mumkin. Shu sababli ushbu tadqiqotda fizik hajmning aholi soniga nisbati asosiy empirik indikatorlardan biri sifatida tanlandi.



O'zbekiston bo'yicha tadqiqotlarda qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, klaster tizimi, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, meva-sabzavotchilik eksporti, suv tejovchi texnologiyalar va iqlim o'zgarishiga moslashuv masalalari keng o'rganilgan. FAO 2025–2026-yillardagi materiallarida ham O'zbekistonda oziq-ovqat tizimlarini iqlimga chidamli, inklyuziv va resurslardan samarali foydalanadigan modelga o'tkazish ustuvor ekanini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining SIAT ochiq ma'lumotlar bazasi, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, FAO va Jahon banki materiallari tashkil etdi.

Tahlilda statistik taqqoslash, dinamik qator, hududiy qiyoslash, guruhlash, strukturaviy tahlil va SWOT yondashuvlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki davrida oziq-ovqat xavfsizligining asosiy vazifasi milliy ishlab chiqarish bazasini shakllantirish va aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ichki imkoniyatlar hisobidan qondirish edi. Keyingi davrlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining diversifikatsiyasi, fermer va dehqon xo'jaliklarining rivojlanishi, meva-sabzavotchilik va chorvachilikning kengayishi oziq-ovqat tizimining tarkibiy asoslarini mustahkamladi. 2017-yildan keyingi bosqichda agrar islohotlarning bozor tamoyillariga yaqinlashishi, klasterlar, kooperatsiya, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, qayta ishlash va agrologistika tizimlari rivojlandi. Bu jarayon oziq-ovqat xavfsizligining ishlab chiqarishdan tashqari zanjirlarini ham kuchaytirdi. Hozirda mamlakatimizda 4 mln. gektar ekin maydoni, 1,5 mln. tonna sig'imli saqlash omborlari va 3,5 mln. tonna mahsulotni qayta ishlash quvvatlari mavjud. Shuningdek, 2030-yilgacha oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 10 mlrd AQSh dollariga etkazish va eksport geografiyasini yana 100 ta davlatga kengaytirish maqsadi belgilangan [1]. Bu vazifalar oziq-ovqat xavfsizligini ishlab chiqarish va eksport raqobatbardoshligi bilan birlashtiradi. 2015–2025-yillarda aholi jon boshiga don va dukkakli don ishlab chiqarish 263,5 kgdan 269,3 kgga, kartoshka 83,4 kgdan 110,8 kgga, sabzavot 302,7 kgdan 365,5 kgga, meva va rezavorlar 79,6 kgdan 92,7 kgga, uzum 48,9 kgdan 52,8 kgga oshgan. Eng yuqori nisbiy o'sish kartoshkada kuzatilgan [3].

1-jadval

O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga asosiy mahsulotlar ishlab chiqarilishi

Mahsulot turi	2015, kg/aholi	2025, kg/aholi	O'zgarishi, %
Don	263,5	269,3	2,2
Kartoshka	83,4	110,8	32,9
Sabzavot	302,7	365,5	20,8
Meva	79,6	92,7	16,5
Uzum	48,9	52,8	7,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi SIAT va stat.uz asosida muallif hisob-kitobi.

2025-yil ma'lumotlariga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 508 711,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Shundan dehqonchilik mahsulotlari 243 007,7 mlrd so'm, chorvachilik mahsulotlari 265 703,4 mlrd so'm bo'lgan. Umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 29,4 foizi fermer xo'jaliklari, 8,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. Quyidagi 2-jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 viloyat bo'yicha asosiy mahsulotlarning aholi jon boshiga ishlab chiqarilishi keltirilgan.

2-jadval

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga asosiy mahsulotlarning ishlab chiqarilishi, 2015 va 2025-yillar, kg/aholi

Hududlar	Don		Kartoshka		Sabzavot		Meva		Uzum	
	2015	2025	2015	2025	2015	2025	2015	2025	2015	2025
Qoraqalpog'iston Respublikasi	151,2	193,8	27,1	55,7	136,8	206,5	23,3	39,4	3,2	8,0
Andijon viloyati	236,9	227,9	97,6	153,3	479,0	603,6	185,7	217,2	24,0	26,6
Buxoro viloyati	381,2	366,7	102,2	147,3	317,7	573,2	134,4	150,7	98,6	116,2
Jizzax viloyati	439,2	580,4	49,0	82,3	296,6	363,6	65,8	72,3	22,8	25,0
Qashqadaryo viloyati	359,1	262,3	56,1	63,2	166,0	182,4	43,9	59,1	31,9	36,2
Navoiy viloyati	297,9	281,6	74,5	119,7	259,3	377,3	101,1	104,1	82,2	90,8
Namangan viloyati	219,4	265,6	94,4	134,2	256,3	371,7	87,7	132,9	45,1	53,4
Samarqand viloyati	242,3	236,5	156,8	180,0	450,8	392,3	102,7	95,0	158,4	162,2
Surxondaryo viloyati	280,0	301,6	92,4	133,9	380,1	492,9	58,4	66,1	50,4	32,0
Sirdaryo viloyati	757,7	682,5	61,1	80,5	360,3	379,1	47,2	55,4	14,9	20,1
Toshkent viloyati	273,2	247,7	131,2	133,9	496,0	444,1	39,8	51,6	41,6	32,9
Farg'ona viloyati	229,6	276,7	73,9	115,8	227,3	389,9	97,4	114,1	32,9	55,3
Xorazm viloyati	267,8	356,3	63,2	80,3	319,1	362,7	85,8	93,4	22,8	27,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi SIAT va stat.uz asosida muallif hisob-kitobi.

2025-yilda asosiy dehqonchilik mahsulotlari tarkibida donli ekinlar 10112,1 ming tonna, kartoshka 4160,2 ming tonna, sabzavotlar 13722,8 ming tonna, poliz ekinlari 3299,8 ming tonna, meva va rezavorlar 3479,6 ming tonna, uzum 1983,0 ming tonnani tashkil etdi. Mazkur tarkib oziq-ovqat xavfsizligining faqat don bilan emas, balki diversifikatsiyalashgan meva-sabzavot va chorvachilik tizimi bilan ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi uchun qayta ishlash va saqlash quvvatining mavjudligi mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish va mavsumiy narx tebranishlarini yumshatish uchun muhim infratuzilma bazasini yaratmoqda. Shu bilan birga, kelgusida sovetlash zanjiri, saralash-qadoqlash, logistika va elektron savdo imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi ishlab chiqarish hajmini oshirish bosqichidan barqaror va sifatga yo'naltirilgan oziq-ovqat tizimini shakllantirish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi. 2015–2025-yillarda

aholi jon boshiga kartoshka 32,8 foiz, sabzavot 20,7 foiz, meva va rezavorlar 16,5 foiz, uzum 8,0 foiz, don esa 2,2 foiz atrofida oshgan [3,4]. Bu o'sish mahsulotlarning barchasida bir xil emasligini va don bo'yicha aholi sonining o'sishi ishlab chiqarish o'sishining katta qismini yutib yuborganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi oziq-ovqat iste'moli bilan aynan teng emas. Mahsulotning bir qismi em-xashak, urug'lik, qayta ishlash, eksport va boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi. Shuning uchun ushbu indikator oziq-ovqat xavfsizligining "mavjudlik" komponentini ifodalaydi, ammo "iqtisodiy imkoniyat", "foydalanish" va "iste'mol sifati"ni to'liq qamrab olmaydi.

FAO ma'lumotlari iqlim xavflarining kuchayishini ko'rsatmoqda: quruq ob-havo, suv tanqisligi va yuqori harorat qishki don ekinlari uchun risklarni oshiradi [9]. Jahon banki ham O'zbekiston qishloq xo'jaligining sug'orishga yuqori darajada bog'liqligi va iqlim o'zgarishi ishlab chiqarishga bosimni kuchaytirishini ta'kidlaydi [11]. Demak, oziq-ovqat xavfsizligining kelajakdagi asosiy mezonini "ko'proq ishlab chiqarish" emas, balki "kamroq resurs bilan barqaror ishlab chiqarish" bo'lishi kerak.

Davlat siyosatida oziq-ovqat xavfsizligini xalqaro standartlarga moslashtirish, sanitariya, veterinariya va karantin tizimlari o'rtasida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, mahsulotni etishtirishdan iste'molchigacha kuzatish va yagona avtomatlashtirilgan axborot platformasini ishga tushirish vazifalarining belgilanishi mazkur muammolarning institutsional echimiga yo'naltirilgan. 2030-yilgacha oziq-ovqat eksportini 10 mlrd dollarga etkazish maqsadi ishlab chiqarish va eksport o'rtasida muvozanatli siyosatni talab qiladi. Eksportning kengayishi qo'shimcha qiymat va valyuta tushumini oshiradi, biroq ichki bozorning mavsumiy va ijtimoiiy ehtiyojlarini ham hisobga olish kerak. Shu sababli eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishda ichki bozor uchun strategik zaxira va hududiy oziq-ovqat balanslarini parallel yuritish maqsadga muvofiq.

3-jadval

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning SWOT tahlili

Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bazasi; mahsulot turlarining diversifikatsiyasi; meva-sabzavotchilik salohiyati; qayta ishlash va saqlash quvvatlarining kengayishi; agrar islohotlarning davom etishi.	Suv resurslariga yuqori bog'liqlik; hududiy tafovutlar; hosildan keyingi yo'qotishlar; ayrim oziq-ovqat turlari bo'yicha import ehtiyoji; oziq-ovqat xavfsizligi ma'lumotlar tizimlarining to'liq integratsiyalanmaganligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Raqamli qishloq xo'jaligi; sun'iy intellekt; aqlli issiqxonalar; suv tejovchi texnologiyalar; xalqaro standartlar; organik va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti; xalqaro investitsiyalar.	Iqlim o'zgarishi; qurg'oqchilik; suv tanqisligi; global narx tebranishlari; geosiyosiy va logistika xatarlari; er degradatsiyasi; o'simlik va hayvonlar kasalliklari.

2030-yilgacha oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning yangi modeli uchta darajaga tayanishi lozim. Birinchi daraja — ishlab chiqarish: hosildorlik, chorvachilik mahsuldorligi va suv unumdorligini oshirish. Ikkinchi daraja — oziq-ovqat tizimi: saqlash, qayta ishlash, logistika, standartlashtirish va raqamli kuzatuv. Uchinchi daraja — inson farovonligi: oziq-ovqatning iqtisodiy qulayligi, sog'lom ovqatlanish va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarining foydalanish imkoniyati.

2015–2025-yillardagi o'rtacha yillik o'sish sur'atlari o'zgarmaydi degan shartli ssenariyda 2030-yilga kelib aholi jon boshiga kartoshka, sabzavot va meva ishlab chiqarish yanada oshishi mumkin.

4-jadval

2030-yilga kelib aholi jon boshiga kartoshka, sabzavot va meva ishlab chiqarish shartli trend prognozi

Mahsulot turlari	2015 yil, kg/aholi	2025 yil, kg/aholi	2030 yil, kg/aholi
Don	263,5	269,3	272,3
Kartoshka	83,4	110,8	127,7
Sabzavot	302,7	365,5	401,7
Meva	79,6	92,7	100,0
Uzum	48,9	52,8	54,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi SIAT va stat.uz asosida muallif hisob-kitobi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning 35 yillik mustaqil taraqqiyoti oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy va institutsional asoslari sezilarli darajada mustahkamlanganini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining diversifikatsiyasi, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining kengayishi hamda eksport imkoniyatlarining oshishi oziq-ovqat tizimining barqarorligini kuchaytirmoqda.

2015–2025-yillarda aholi jon boshiga besh asosiy mahsulot bo'yicha hisob-kitoblar kartoshka, sabzavot, meva va rezavorlar hamda uzum ishlab chiqarishining o'sishini ko'rsatdi. Don bo'yicha o'sish nisbatan past bo'ldi. Hududlar kesimida esa ishlab chiqarishning sezilarli ixtisoslashuvi va tafovutlari saqlanmoqda. Bu tafovutlar oziq-ovqat xavfsizligi siyosatida hududiy yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kelgusi davrda oziq-ovqat xavfsizligi uchun asosiy vazifa ishlab chiqarish hajmini oddiy ko'paytirish emas, balki suv, er, energiya va boshqa resurslardan samarali foydalanib, barqaror, sifatli va xavfsiz oziq-ovqat tizimini yaratishdir. Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida resurs-tejamkor texnologiyalar, iqlimga mos navlar, raqamli monitoring va erta ogohlantirish tizimlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

2030-yilgacha oziq-ovqat eksportini 10 mlrd dollarga etkazish, eksport geografiasini kengaytirish, saqlash va qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish hamda “daladan dasturxongacha” nazoratni kuchaytirish O'zbekistonning



agrifood tizimini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Bunda eksport salohiyati va ichki bozor barqarorligi o'rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur.

Yangi O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligining istiqbolli modeli "yetarli ishlab chiqarish"dan "mavjud, hamyonbop, xavfsiz, sifatli, barqaror va iqlimga mos oziq-ovqat tizimi"ga o'tishni nazarda tutadi. Taklif etilgan hududiy kompleks indikator ushbu jarayonni muntazam monitoring qilish va davlat siyosatini hududlar ehtiyojiga moslashtirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston – 2030 strategiyasini takomillashtirishga oid 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmon. <https://www.lex.uz/pdf/-8050769>
2. <https://www.fao.org/uzbekistan/>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi. 2025-yil yanvar–dekabr press-relizi. 23.01.2026.
4. [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT: Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi \(yillik\).](https://siat.stat.uz) //https://siat.stat.uz
5. <https://www.fao.org>. The State of Food Security and Nutrition in the World 2024. Rome, 2024.
6. <https://www.fao.org/giews/countrybrief/country/UZB/pdf/UZB.pdf>
7. <https://www.fao.org>. Uzbekistan embarks on a journey to protect its landscapes and secure food systems. 29 January 2025.
8. <https://www.fao.org>. FAO keeps promoting green agriculture in Uzbekistan supporting the transition to a green economy. 15 April 2025.
9. <https://www.fao.org>. Uzbekistan strengthens alignment of food systems and climate action through national workshop. 3 April 2026.
10. <https://www.fao.org>. FAO and Uzbekistan conclude a regional project supporting smallholder farmers. 10 December 2025.
11. <https://documents.worldbank.org/World> Bank. Supplementary information on Climate Co-Benefits: First Inclusive and Resilient Market Economy Development Policy Operation. 2024.
12. Global Hunger Index. Global Hunger Index 2025.
13. United Nations. Sustainable Development Goals: Goal 2 – Zero Hunger.
14. FAO. Country Programming Framework for Uzbekistan 2026–2030.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**